7.2. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

7.3. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

8.SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Mazkur shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, g'aznachilik bo'linmasida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

8.2. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi

9. FORS-MAJOR HOLATLAR

9.1. Fors-major natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari kelib chiqsa va bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 15-fevralidagi 63-sonli "Yengib bo'lmas kuch (fors-major) holatlarining mavjudligini tasdiqlash mexanizmini kiritish to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan shartlarda tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilishidan ozod etiladi.

9.2. Mazkur shartnomani bajarmagan yoki lozim darajada bajarilmasa tomonlar O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi subyektlari faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa amaldagi qonunlari talablari bo'yicha javobgar bo'ladi.

10. BOSHQA SHARTLAR

10.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

10.2. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgarishlar va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilishi va taraflar tomonidan imzolanishi kerak.

10.3. Mazkur shartnomaning bekor qilinishiga, to'xtatilishiga asos amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

10.4 Mazkur shartnoma har bir tarafga bitta nusxadan, jami ikki nusxada tuziladi va har ikkala nusxa ham teng yuridik kuchga ega.

11. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

11.1. Tomonlar:

11.1.1. Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bo'lmagan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarni bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklamay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti-harakatlari/harakatsizlikarini sodir etmaydilar.

11.1.2. Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bo'lmagan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul so'mmalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'barlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

11.2. Tomonda ushbu Shartnomaning 11.1-bandida belgilangan talablarni buzish sodir etganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi